

# “O’ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

## BORIS PASTERNAKNING “YANA BAHOR” («OPYAT VESNA») SHE’RI TAHLILI

Aziza Babajonova,  
TDPU o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada iste’dodli rus shoiri Boris Pasternakning “Yana bahor” nomli she’ri xususida so’z yuritilib, shoir lirik kechinma tabiatini aks ettirishda qarshilantirish, turli detallarni yanma-yon qo’llash usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, ifoda yorqin obrazlilik ko’rinishiga ega bo’lishiga oid takliflar beriladi.

**Kalit so’z va iboralar:** she’r, mavzu, detal, obraz, qarshilantirish, lirik kechinma tabiat, lirik subyekt.

**Аннотация:** В статье говорится о стихотворении “Внов весна” талантливого русского поэта Бориса Пастернака, анализируется то, как поэт противопоставляет и использует рядом разные детали в отражении характера лирического переживания. Также есть предположения, что выражение будет иметь вид ярких образов.

**Ключевые слова и фразы:** стихотворение, тема, деталь, образ, контраст, характер лирического переживания, лирический субект.

**Abstract:** The article talks about the poem "Spring Again" by the talented Russian poet Boris Pasternak, and analyzes the ways in which the poet contrasts and uses different details side by side in reflecting the nature of the lyrical experience. Also, there are suggestions that the expression will have the appearance of vivid imagery.

**Key words and phrases:** poem, theme, detail, image, contrast, nature of lyrical experience, lyrical subject.

Badiiy ijod jarayoni murakkab ruhiy-intellektual faoliyat bo‘lib, uni anglash tadqiqotchidan katta mas’uliyat va tajribani talab etadi. Ayniqsa, Boris Pasternak she’riyatida yanada betakrorlikka ega. Zero, “She’riy ilhom shoirni yerdan osmonga qadar ko’taradi. Bunda tasvir metaforik va metonimik obrazlar bilan ifodalanadi” [1, 106]. Natijada shoir she’rlaridagi oddiy voqelik, masalan, qorning sekin-astalik bilan erishi, muzlarni turli ovoz chiqara boshlashi kabilar yangicha mazmun kasb eta boshlaydi. Shoirning “Yana bahor” (“Opyat vesna”) she’rida esa bahor va ijtimoiy hayotning qattiq, og’ir predmetlari, jumladan poezd, undan to‘kilgan qora moy, shpal, po’lat izlar va soy, yerning ko‘pchishi kabilar qorishiq holda keladi. Lekin lirik kompozitsiyadagi ushbu badiiy detallar yaxlitlikka ega bo‘lib, bitta maqsad, bahorning kirib kelishini tasvirlashga xizmat qiladi:

*Ketdi poezd. Qoldirib dog’.  
Garchi men kecha-kunduz tursam ham  
Tanib bo’lmas tomonlardan*

# “O’ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERİALLARI

*Qorong’ulikda qandoq topay yo ‘l? [2, 176]<sup>1</sup>*

Shu o‘rinda she’rni tushunish va tarjima qilish haqida ham bir og‘iz ta’kidlab o‘tishga ehtiyoj tug‘ildi. Asl matnda band “Poyezd ushyol. Nasır cherna. Gde ya dorogu vpotmax razdobudu? Neunavayemaya storona, xot ya i sutki tolko otsyuda” deb berilgan. Ko’rinadiki, birinchi ikki misra aslidan sal boshqacharoq. Biz uni poezddan qoladigan qora moy dog’i hamda lirik subyektning dilidagi dog’, yo’lsizlikka, qorong’ulikka ishora sifatida shunday tarjima qildik. Aslida bu yerda poezd, dog’ detallari bir nechta ma’noni anglatadi. Birinchisi, asl ma’nosida kelib, lirik subyekt poezd harakatlanib ketganini va undan, odatda, shpallar atrofida to‘kiladigan qora moy izlarini ko‘rgan. Buning ustiga atrof qorong’ulik, qay borishni bilmasdan turgan odam holati ifodalangan. Ikkinchisidan esa ular ramziylikka ega deb talqin etilishi ham mumkin. Ya’ni, poyezd ketgani haqidagi so‘z birikmasi vaqt o‘tganini bildirsa, qorong’ulikka yo‘l topish haqidagi ritorik so‘roq, lirik subyektning hayotiy maqsadi, intilishlaridagi noaniqlikka ishora qiladi. Bu mulohazalar va talqin she’rning keyingi bandidagi fikrlarga mos keladi:

*Toshdek qordim, shapallarda cho ‘yan jarangi.  
Birdan?!! Allaqanday o‘zagacha, haqiqatdan, g‘alati  
Befahm, g‘iybatchi ayollar mishmishidek...  
Yo ‘ldan ozdirdimi ularni shayton?*

Birinchi galda, avvalgi banddan anglashilgan mavhumlik, noaniqlik bu yerda rivojlantirilayotganini kuzatish mumkin. Lirik kechinma tabiatidagi noaniqlik, tushunarsiz holat “toshdek qotdim”, “po ‘lat jaranggi” so‘z birikmasi va “Birdan?!!” so‘zining mazmuniy yaxlitligida yanada kuchaygan. Keyin esa maishiy hayotdagi realikka qiyoslash (“Befahm, g‘iybatchi ayollar mishmishidek”) va ritorik so‘roq (Yo ‘ldan ozdirdimi ularni shayton?) orqali lirik subyekt borliqdagi, o‘zi tushib qolgan vaziyatga ta’rif beradi. Bu birinchi banddagи mazmunni yanada teranlashtirib, nisbatan aniqroq anglashga yordam beradi. Shoir o‘zi yashagan qish va uning qahrli, sukunat, qorong’ulikdan iborat ekanligiga ishora qiladi. Lekin ana shu zulmatni, sukunatni buzgan ovozga yana qaytadi. Bu ovozni qayerdadir eshitgani e’tirof etadi:

*Qayerdadir uzuq-uluq bu ovozni  
Eshitgandekman, nahotki, o‘tgan yili bir lahza?  
Eh, bu yana o‘sha, darhaqat, bugun  
O‘tloqdagи irmoqdan yaragan tunda.  
Bu avval ham yuz bergenidek,*

<sup>1</sup> Asl matnda «Poyezd ushyol. Nasır cherna. Gde ya dorogu vpotmax razdobudu? Neunavayemaya storona, xot ya i sutki tolko otsyuda» deb boshlangan. Biz uni poezddan qoladigan qora moy oqishidagi dog’ hamda lirik subyektning dilidagi dog’, yo’lsizlikka? qorong’ulikka ishora sifatida shunday tarjima qildik.

# **“O’ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERİALLARI**

*Muzlar surildi va irmoqlar orti ko ‘pchidi.*

*Bu chindan ham ajib mo ‘jiza,*

*Bu har galgidek, yana ko ‘klam.*

Shoir she’riyati uchun bahor doimo qish, zulmat, diqqinafaslik kabilar bo‘lab birga keladi. Mazkur she’rida ham avval qishning uzoq zerikarli kunida yashayotgan lirk subyektni tasvirlaydi. Keyin esa shu muhitga ko‘nikkan va ko‘klamdan umidini uzayotgan odam tasviri so‘ngra kunlar ilishi, muzlar eriy boshlashi, harakatga kelishi, yer ko‘pchini tasvirlaydi. Tabiatdagi bu o‘zgarish darhaqiqat mo‘jiza edi. Tabiatdagi jonlanish, eshitilar eshitilmas kelayotgan ovoz, shivir-shivirlar aslida tabiat uyg‘onishi belgisi edi. Lirk kechinma tabiatida ham ana shu ovozlarga monand ravishda ko‘tarilish paydo bo‘ladi. Shuningdek, poyoniga yetayotgan qishning sekin-astalik bilan odamlar hayotidan uzoqlashayotgani, qochayotgani haqidagi tasvirni beradi. Bunda qishda odamlar faol tasvirlaydigan eng mo‘jizakor obrazlarida biri qorqiz, qishning oppoq libosi tabiatning jar yoqasida yoki tolning ortiga o‘tib olganini berish bilan ularning o‘rnini egallayotgan ko‘klam haqida tushuncha beradi. Buni quyidagi bandda yaqqol kuzatish mumkin:

*Bu o ‘sh ham, bu o ‘sha,*

*Bu uning sehri va mo ‘jizasi.*

*Tol ortidagi issiq nimchasi,*

*Yelkasi, sochpopuklari, qomati va beli.*

*Jar ustida turardi Qorqiz.*

Shoir bu bandda qorqiz va tolni o‘zaro solishtiradi. Qorqiz jar yoqasiga borib qolgani, uning oppoq nimchasi tolning ortida ekanligi, ya’ni tolning soyasida, quyosh hali yetib bormagan joyda ekanligini tasvirlaydi. Lekin shunday bo‘lsa-da tolning novdalari (sochpupuk)da kurtaklar bo‘y ko‘rsatayotganini ham qayd etadi. Demak shoir contrast usulidan ham foydalangan deyish mumkin. Bundan tashqari, azaldan navnihol topni qizlarga qiyoshlash odati bo‘lib, bu yerda ana shu an'anadan foydalangan holda, unga yangi, ya’ni qishni kuzatuvchi, bahorni kutib oluvchi obraz vazifasi yuklatilgan.

Xullas, shoir she’r yaratar ekan, real borliqdagi har bir narsa, hodisaga yangicha badiiy-estetik vazifa yuklay olgan.

## **Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Gasparov M.L. Polivanov K.M. “Bliznesы v tuchax” Borisa Pasternaka: орыт kommentariya. – Moskva: Rossiysk.gos.gumanit. Un-tb 2005. – 143 s.
2. Pasternak B. Stixotvoreniya i poemy. – Ashxabad: Turmenistan, 1987. – 400 c.

# "O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

3. Farmonovna, Xulkar Radjabova, and Hulkar Rajabova Farmonovna. "Ota-on, mактаб va o'qituvchi hamkorligidagi harakat ta'lismi qo'llab-quvvatlashning samarali usulidir" (2022).
4. Nurmakhamatovna, o. Z. (2022). Pedagogical technologies aimed at education in junior schoolchildren value attitude to the family. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 45-49.
5. Akhtamovna, A. D. (2023). The scientific significance of the harmony of the works of abu ali ibn sina and alisher navai. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(4), 1000-1002.
6. Achilov, N. K. (2022). The image of a historical person and its epical interpretation. *Open Access Repository*, 8(05), 126-132.
7. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
8. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA'SIRI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(20), 24-27.
9. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
10. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go'zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.
11. Kalandarova D. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany". *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
12. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. *Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(10), 415-419.
13. Omanova, M. (2024). Bahouddin Naqshband to'g'risidagi ma'lumotlar aks etgan asarlar. "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari". – Toshkent: 139-146.
14. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in Alisher Navoy's creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.